



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 2 (4)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**2**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Аслонов С.М., Амиджанова М.М.</b> Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
<b>Умаров И.Ю.</b> Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
<b>Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M.</b> Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
<b>Mamajonova N.A.</b> Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
<b>Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B.</b> Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
<b>Bahromov Sh.F.</b> Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
<b>Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A.</b> Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
<b>Юсупов М.Х.</b> Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
<b>Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д.</b> Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
<b>Гулямова Н.Х.</b> Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
<b>Arziboyeva R.S.</b> Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
<b>To‘raboyev Q.Q.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
<b>Tojiboyev I.I.</b> Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
<b>Xolmirzayev I.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
<b>Saidova M.J.</b> Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
<b>Usmonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
<b>Xaydarov M.T., Jannazarova G.K.</b> Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
<b>Худайназарова Д.Г.</b> Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
<b>Madaminov A.M.</b> O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
<b>Zufarova G.A.</b> Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
<b>Ergashev I.I.</b> Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
<b>Sativaldiyeva G.X.</b> Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
<b>Kamilova A.N.</b> Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
<b>Базарова Г.Г.</b> Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
<b>Turabov B.T.</b> Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
<b>Xamzaev A.N.</b> Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
<b>Xamzaev A.N., Mirzajonov M.</b> Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

<b>Raximova L.Sh.</b> Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	<b>141</b>
<b>Nosirov S.N.</b> ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>146</b>
<b>Maxkamov X.M.</b> Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	<b>150</b>
<b>Hamrakulova M.F.</b> Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	<b>153</b>
<b>Mirzayeva L.S.</b> O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	<b>157</b>
<b>Очилов Ж.Ж.</b> Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	<b>160</b>
<b>Usubjonov Z.V.</b> Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	<b>165</b>
<b>Bekmurodov N.X.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	<b>170</b>
<b>Yusupova M.B.</b> Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	<b>175</b>
<b>Xudayberdiyev O.A.</b> Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	<b>179</b>
<b>Bo'stonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	<b>187</b>
<b>Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D.</b> O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	<b>192</b>
<b>Hamidova Sh.O.</b> Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	<b>196</b>
<b>Abdullayeva Z.S.</b> Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	<b>199</b>
<b>Duvshatova N.K.</b> Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	<b>203</b>
<b>Усманова А.Б.</b> Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	<b>207</b>
<b>Qidirniyozov A.Sh.</b> Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	<b>213</b>
<b>Dexkanova Sh.K.</b> Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	<b>217</b>
<b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	<b>221</b>
<b>Mamatov B.S.</b> O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	<b>226</b>
<b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	<b>231</b>
<b>Aminboyev J.O.</b> Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	<b>235</b>
<b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	<b>241</b>
<b>Usmanova S.S.</b> Innovative development of the pharmaceutical industry.....	<b>245</b>
<b>Faxriddinova N.N.</b> Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	<b>250</b>
<b>Захирова Г.</b> Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	<b>254</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	<b>258</b>
<b>Sharapova N.K.</b> Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	<b>264</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	<b>272</b>

**BYUDJET TAQCHILLIGI VA XALQARO MOLIYAVIY OQIMLARNING TA’SIRI**

**БЮДЖЕТНАЯ ТАМОЖНЯ И ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ**

**BUDGET CUSTOMS AND THE IMPACT OF INTERNATIONAL FINANCIAL FLOWS**

**Turabov Bahodir To‘htamishovich**

Moliya va kredit kafedrası professorı v.b, iqtisodiyot fanlari doktori

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, byudjet taqchilligining iqtisodiy jarayonlar rivojiga ta’siri hamda xalqaro moliyaviy oqimlar – xususan, xorijiy investitsiyalar, xalqaro kreditlar, grantlar va moliyaviy yordamlar – bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganib chiqilgan. Bundan tashqari byudjet taqchilligi darajasi iqtisodiy barqarorlik, davlat qarzi dinamikasi, makroiqtisodiy muvozanat hamda fiskal siyosat samaradorligiga ko‘rsatadigan bevosita va bilvosita ta’sirlarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat byudjeti, byudjet taqchilligi, moliyaviy oqimlar, xorijiy investitsiya, xalqaro kreditlar, fiskal siyosat, makroiqtisodiy muvozanat, investitsiya

В данной статье проанализировано влияние бюджетного дефицита и международных финансовых потоков. Также изучены воздействие бюджетного дефицита на развитие экономических процессов и его взаимосвязь с международными финансовыми потоками — в частности, с иностранными инвестициями, международными кредитами, грантами и финансовой помощью. Кроме того, разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию прямого и косвенного воздействия уровня бюджетного дефицита на экономическую стабильность, динамику государственного долга, макроэкономическое равновесие и эффективность фискальной политики.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, бюджетный дефицит, финансовые потоки, иностранные инвестиции, международные кредиты, фискальная политика, макроэкономическое равновесие, инвестиции.

This article analyzes the impact of budget deficits and international financial flows. It also examines the influence of budget deficits on the development of economic processes and their interrelationship with international financial flows — particularly foreign investments, international loans, grants, and financial assistance. In addition, scientific proposals and practical recommendations have been developed to improve the direct and indirect effects of the budget deficit level on economic stability, public debt dynamics, macroeconomic balance, and the effectiveness of fiscal policy.

**Keywords:** state budget, budget deficit, financial flows, foreign investment, international loans, fiscal policy, macroeconomic balance, investment.

Global moliya tizimiga xos fundamental muammolar jahon iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligi oqilona olib boriladigan davlat qarzi siyosatiga bog‘liqligini tasdiqlamoqda. XXI asrning dastlabki choragida aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlar moliya tizimida olib borilgan monetarizm doktrinasiga asoslangan liberallashtirish va fiskal konservatizm siyosati “Qarzi asoslangan iqtisodiyot” shakllanishi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga davlat qarzlarning salbiy ta’siri kuchayishiga olib keldi. Xususan, “2021-yilda global masshtabdagi qarzdorlikning nominal qiymati 281 trln. AQSH dollaridan ortgan. Jahon YAIMdagi qarzlarning ulushi 355 %ni tashkil qildi.

Bunday qarzdorlik asosan AQSH va Xitoy davlatlari faol qarz siyosatiga to‘g‘ri kelishi prognoz qilingan”. Bu esa, davlat qarz siyosatini to‘g‘ri olib borish, byudjet defitsiti va uni qarzni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishni talab etmoqda [1].

Jahonda davlat moliyasi tizimida kuzatilayotgan surunkali byudjet taqchilligi va uning faol qarzni moliyalashtirish siyosati, ularning makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o‘shishga ta’siri borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda davlat moliyasi tizimida davlat qarzlarning iqtisodiy tabiatiga oid bir qator ilmiy konsepsiya va tadqiqotlar ustida ham ishlar olib borilmoqda. Xususan, bu borada davlat moliyasi tizimidagi “devalvasion qarz qopqoni” konsepsiyasi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash sharti sifatida “Aktiv byudjet taqchilligini qarzni moliyalashtirish” qoidasi davlat qarzlarni boshqarishning makrofiskal va makromonetar ko‘rsatkichlari o‘zaro ta’sirchanligiga asoslangan zamonaviy konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Qarz siyosati mamlakatdagi byudjet taqchilligi yoki ijtimoiy muammolarning oldini olishga yo‘naltirilgan kambag‘allikka qarshi kurashish bilan birga iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O‘zbekiston ham oxirgi yillarda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, davlat xarajatlarining kengayishi va ijtimoiy dasturlar hajmining oshishi fonida byudjet taqchilligi darajasini optimal boshqarishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu jarayonda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, investitsion oqimlarni jalb etish va tashqi qarzning maqbul darajada saqlanishi ustuvor yo‘nalishlar qatorida turadi.

O‘zbekistonda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta’minlash” deb nomlangan uchinchi ustuvor yo‘nalishidagi 21-maqсадda “Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish va 2023-yildan yalpi ichki mahsulotga nisbatan uning 3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash” va “Davlat qarzini boshqarishda yiliga yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdorini ma’lum bir miqdordan oshib ketmasligini ta’minlash” belgilangan [2].

Yuqoridagi strategik maqsaddan ham ko‘rinib turibdiki, davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlarni boshqarishda makrofiskal ko‘rsatkichlar tizimi elementi sifatida ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash va chegaraviy mezonlarini belgilash istiqbolda davlat moliyasi barqarorligining kafolati sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilar mavzuning dolzarbligini belgilab bermoqda, uning ahamiyati shundaki, byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nafaqat davlat moliyasini muvozanatlashtirish, balki iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta’minlashda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli ularning ta’sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va barqaror fiskal siyosatni shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat qarzlari va uni makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazardan boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari qator xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, G.Alfred, B.Frinke, R.Djessi, B.Alexin, A.Babich, L.Pavlova, L.Braginskaya va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlarida yoritib berilgan [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan T.Malikov, Sh.Toshmatov, O.Kamolov, S.Xudoyqulov, X.Qurbonov, H.Hakimov, Sh.Jalilov, J.Ataniyazov, S.Yelmirzayev va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan [4].

Mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramay, aynan byudjet defitsiti va uni qarzni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi” davrlarida yanada chuqurroq hamda kompleks va tizimli o‘rganishni taqozo etmoqda.

Byudjet taqchilligining soliq yukini oshirish yoki qarzni moliyalashtirish singari muqobil variantlarida asosiy masalaga milliy iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan iste’molga ta’sir nuqtai nazaridan turli yondashuvlar mavjud.

Klassik iqtisodiy nazariyadan oldingi davrning ikkita asosiy maktabi hisoblanuvchi merkantilizm va fiziokratlar iqtisodiy siyosat va davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish nuqtai nazaridan

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2026 yil**

qarama-qarshi pozitsiyada bo‘lib, merkantilistlar intervension pozitsiyada, fiziokratlar esa iqtisodiy liberalizmni qo‘llab-quvvatlash pozitsiyasida bo‘lganlar.

Xususan, merkantilistlar: T.Mann, U.Stafford, A.Sera, A.Monkreten va boshqalar davlat qarz siyosati – davlat daromadlarining muhim manbai hisoblanishini e’tirof etib o‘tadilar. Ularning fikricha, davlat iqtisodiyotni tartibga solishda zamonaviy byudjet instrumentlari hisoblanuvchi soliqlar, davlat xarajatlari, davlat qarzlaridan faol foydalanishi kerak.

Fiziokratlar (F.Kene, A.R.Tyurgo, V.Mirabo, G.Letron, P.Merse de La River) esa davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qat’iy cheklash tarafdorlari sifatida qarz instrumentlari orqali davlat aralashuvi daromadlar tengsizligining asosiy omili hisoblanishini ta’kidlaydilar [5].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar natijasidagi to‘plangan fikrlarni umumlashtirgan holda tarixiy retrospektivada davlat qarzlariga oid asosiy iqtisodiy maktablarning qarashlarini quyidagi jadvalda tizimlashtirish mumkin(1-jadval).

**1-jadval**

**Davlat qarzlariga oid nazariy yondashuvlar tahlili [6]**

<b>Iqtisodiy maktablar</b>	<b>Ijobiy</b>	<b>Salbiy</b>	<b>Konsepsiyalar</b>
Merkantilizm	Qarz — davlat daromadlarining muhim manbai	-	“Funksional moliya” Intervension
Fiziokratlar	-	“Tabiat in’omi”, “tabiiy tartib”, davlat iqtisodiyotiga aralashmasligi kerak	“Sog‘lom moliya”, Iqtisodiy liberalizmni qo‘llab-quvvatlash
Klassiklar	-	Qarz kelajak avlod uchun qat’iy yuk, samarasiz iste’mol uchun olingan qarz	“Sog‘lom moliya”, Pessimistik yo‘nalishda bo‘lib kreditning naturalistik nazariyasiga asoslanadi
Marksizm	Davlat kreditining “Ishlab chiqarish kuchi”ni tan oladi	-	“Funksional moliya”, optimistik yo‘nalishda bo‘lib, uning negizini kreditning kapital yaratuvchi nazariyasi (Capital theory of credit) tashkil etadi
Nemis yangi tarixiy maktabi namoyondalari	Iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar natijasidagi aktiv va passiv byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbai	-	“Funksional moliya”, optimistik yo‘nalishda bo‘lib, uning negizini kreditning kapital yaratuvchi nazariyasi (Capital theory of credit) tashkil etadi
Keyns va yangi keynschilik nazariyasi	Byudjet taqchilligi va qarz olish – krizis davrida muhim omil	-	“Funksional moliya”, Siklik balanslashtirilgan byudjet g‘oyasi
Monetarizm	-	Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga to‘sqinlik qiluvchi instrument	“Sog‘lom moliya”, davlat qarzlarini iqtisodiy o‘shishning monetar jihatlarini tashkil etadi

Bizning fikrimizcha, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash maqsadida xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinayotgan kreditlarning salmog‘i investitsion kreditlarga to‘g‘ri keladi. Bu holat davlat tashqi qarzi siyosati istiqbolda YAIM hajmining ijobiy yuqori oshishini ta’minlovchi iqtisodiy rivojlanish loyihalarini realizatsiya qilishning strategik tavsifdagi moliyaviy manbai vazifasini bajaradi. Respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida davlat tashqi qarzi mablag‘laridan samarali foydalanish masalasi alohida o‘rin tutadi.

Amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi mutasaddi vazirlik va idoralar ishtirokida doimiy monitoringi va nazorati yo‘lga qo‘yilgan.

So‘ngi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat tashqi qarzi yo‘naltirilgan sohalarda salmoqli darajada iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishildi. Birgina sog‘liqni saqlash sohasiga katta mablag‘lar yo‘naltirildi. Loyihalar doirasida birlamchi tibbiyot muassasalari, ixtisoslashtirilgan tibbiy va boshqa respublika tashkilotlari, sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari uchun tibbiy laboratoriya va diagnostika jihozlari keltirilmoqda, soha mutaxassislarining malakasi oshirilmoqda. Loyihalar natijasida, aholining kasallanish va nogironlik darajasi, onalar o‘limi kamaydi, tibbiyot birlashmalarida va boshqa statsionarlarda davolanganlar soni oshdi, tibbiyot birlashmalarida yotoq soni qisqarmoqda.

Amalga oshirilgan loyihalar doirasida o‘zlashtirilgan tashqi qarzni salmoqli qismi transport, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, kommunal va sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilmoqda. Jumladan:

– yillik qo‘shimcha elektr energiya quvvatlari yaratilmoqda, yuqori kuchlanishli stansiyalar quvvati oshirilmoqda, yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘i qurilmoqda, natijada aholi xonadonlari uzluksiz elektr energiya bilan ta’minlanmoqda;

– shuningdek ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmog‘i qurilmoqda va ayrim aholi punktlari ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanmoqda;

– avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilinmoqda, 2017-yilga nisbatan xalqaro yuk tashuvchi transportlar soni anchaga oshdi va Yalpi ichki mahsulotdagi tashish va saqlash tarmog‘ining qiymati sezilarli darajada ko‘paydi.


– temir yo‘llar elektrlashtirilmoqda, “Talgo-250” tezyurar poyezd va elektrovoz xarid qilindi, natijada barcha transport turlari bo‘yicha yuk tashish hajmi va yo‘lovchi tashish oshdi;

– qishloq xo‘jaligi yerlar kafolatli suv bilan ta’minlandi, elektron gaz hisoblagichlar o‘rnatilishi natijasida gaz yo‘qotishlar kamaydi, asossiz qarzdorlik bartaraf etildi.

Shu bilan birga, bugungi kundagi islohotlarning jadallashuvi doirasida Davlat qarzlari o‘rta va istiqbolga mo‘ljallangan boshqarish tizimida tashqi qarzlarni boshqarish tizimini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish vazifasi belgilab berilgan [7].

Hozirgi davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda buni quyidagi grafikda ko‘rishimiz mumkin(1-rasm).



**1-rasm. 2020-2024-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o‘sish sur‘atlari dinamikasi [8]**

Yuqoridagi grafikdan shuni tahlil qilish mumkinki, 2020–2024-yillar davomida investitsiyalar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2020-yildagi 210,2 trln so‘mlik ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 493,7 trln so‘mga yetib, qariyb 2,3 baravar oshgan. Bu o‘shish mamlakatda moliyaviy siyosatning izchil liberallashtirish, iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va investorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Yillik o‘shish sur‘atlari ham investitsion faollikning jadallashganini ko‘rsatadi. 2020–2022-yillar oralig‘ida o‘shish nisbatan barqaror bo‘lsa (95,6–100,2%), 2023-yilda o‘shish keskin ravishda 123,4% gacha oshgan. 2024-yildagi 127,6% ko‘rsatkichi esa investitsiya oqimining yanada kuchayganini bildiradi. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda yuz bergan sakrash investitsiya loyihalarining ko‘paygani, davlat infratuzilma dasturlarining kengaygani va xususiy sektor faolligining kuchaygani bilan bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, byudjet taqchilligi davlat moliyasining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, uning miqdori mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, fiskal siyosatning samaradorligi va xalqaro moliyaviy munosabatlardagi ishtirokiga bevosita ta‘sir qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda dunyodagi yuz berayotgan turli xil siyosiy – iqtisodiy masalalardagi notinchliklar natijasida iqtisodiy o‘shish sekinlashuvi, soliq tushumlarining pasayishi yoki davlat xarajatlarining keskin oshishi taqchilik darajasining ortishiga olib keladi.

Bunday sharoitda xalqaro moliyaviy oqimlar — xususan, xorijiy investitsiyalar, xalqaro kreditlar, grantlar va donor tashkilotlarning yordam dasturlari — byudjet barqarorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro moliya institutlari orqali jalb qilinayotgan resurslar infrastrukturaviy loyihalarni moliyalashtirish, davlat dasturlarini davom ettirish va ijtimoiy yo‘naltirilgan xarajatlarni qoplash imkonini beradi.

Umuman olganda, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun taqchilikni izchil boshqarish, samarali byudjet rejalashtirish, tashqi qarzning maqbul darajasini ushlab turish hamda xalqaro moliyaviy oqimlardan oqilona foydalanish zarur.

Bizning fikrimizcha, investitsion muhitni va jozibadorligini oshirish hamda samaradorligini ta‘minlash, shuningdek, byudjet taqchilligini oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni olg‘a surishimiz mumkin:

Davlat xarajatlarini ustuvorliklar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish, samaradorligi past bo‘lgan loyihalarni qisqartirish lozim. Soliq bazasini kengaytirish orqali byudjetga tushumlarni oshirish: xususan, raqamli iqtisodiyotni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish muhim deb hisoblaymiz. Shu bilan bir qatorda davlat xarajatlarida natijadorlikka asoslangan (results-based budgeting) metodologiyani joriy etish zarur.

Xalqaro moliyaviy oqimlardan samarali foydalanish ya‘ni xalqaro kreditlar va investitsiyalarni jalb qilishda foiz stavkalari, to‘lov muddatlari va valyuta risklarini chuqur baholash lozim. Xalqaro moliyaviy oqimlarni jalb qilishda loyiha boshqaruvi (project management) va monitoring tizimlarini mustahkamlash ham muhim rol o‘ynaydi.

Davlat qarzi xavfsizligini ta‘minlash bunda davlat qarzining milliy iqtisodiyotga nisbatan maksimal chegarasini aniq belgilash va muntazam monitoring qilish. Qarz portfelini diversifikatsiya qilish: qisqa va uzoq muddatli kreditlar ulushini muvozanatlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
3. Physiocrat. Encyclopædia Britannica 2005; Kaplan S. Bread, Politics and Political Economy in the reign of Louis XV. Haguye, 1976, Vol. I, pp. 113-148.
4. Alfred Greiner, Bettina Fincke Public Debt, Sustainability and Economic Growth Theory and Empirics. Springer International Publishing Switzerland 2015.- p.267.;

5. David N. H. Public financye. A contemporary Application of theory to policy. 10 edition. South-Wyestern Cyengage Learning, 5191, Natorp Boulevard Mason, OH 45040 USA;
6. Рассел, Джесси. Государственный долг США / Джесси Рассел. – М.: ВСД, 2012. – 226 с.;
7. Алехин Б.И. Государственный долг. Пособие для студентов академии бюджета и казначейства.- М., 2007 г.;
8. Бабич, А.М. Государственные и муниципальные финансы / А.М. Бабич, Л.Н. Павлова. – М.: Юнити-Дана, 2011. – 687 с.;
9. Брагинская Л.С. «Государственный долг: анализ системы управления и оценка ее эффективности .- М .: Книга по Требованию, 2014. - 430 с.;
10. Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик. – Тошкент: Ношир, 2011. - 712 б.
11. Тошматов Ш.А. Управление государственным внешним долгом / Тошматов Ш.А., Нурматов Б.Э., Хамрохужаев Н.Я., Юсупов К.А. – Ташкент: Чулпан, 2015. - 144 с.
12. Комолов О.С. ва бошқалар. Давлат қарзларини бошқариш. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2018. - 259 б.
13. Qurbonov X.A. Davlat moliyasini boshqarish. – Т.: Lesson press, 2019. - 228 б.
14. Jalilov Sh. Yoqilg‘i energetika korxonalarini soliqqa tortish tizimini isloh qilishning zamonaviy yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 4-son, iyul-avgust, 2017-yil
15. Ataniyazov J. Maktab ta’limi sohasida o‘rta muddatli natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetlashtirish. “Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2-son, mart-aprel, 2015-yil
16. Elmirzayev S. Korporativ moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari. “Iqtisod va moliya” 2018-y. 6-son, 37-42-b.
17. Mustafokulov Sh.I. Investision muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. / Monografiya. – Т.: Ma’naviyat, 2017. – 328 б.
18. Tashbayev Bobir O‘razboy o‘g‘li Byudjet defisiti va uni qarzli moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Т.:2022.
19. <http://global-financies.ru/mirovoy-dolg-2021/>
20. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
21. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)